


Umumta'lim maktablarida so'nggi qo'ng'iroq



25 may kuni mamlakatimiz umumta'lim maktablarida so'nggi qo'ng'iroqlar yangrab, qariyb 438 ming nafar o'quvchi yoshlarimiz yetuklik shahodatnomasini qo'lga kiritadi.



Shu munosabat bilan Respublikamiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev maktab bitiruvchilariga tabrik yo'lladi. –“Avaalo, barchangizni beg'ubor o'quvchilik yillaringizni ortda qoldirib, qadrdon maktabingiz, ustozlaringiz bilan xayrlashib, hayotingizning yangi, yanada mas'uliyatli bosqichiga qadam qo'yayotganingiz bilan chin qalbidan tabriklayman”,- degan samimiy tilaklar bor davlatimiz rahbarining tabrigida. –“Bu nafaqat siz, aziz farzandlarimiz, balki biz-ota-onalar, ustoz-murabbiylar uchun ham g'oyat quvonarli va hayajonli voqeadir”.



Maktab bitiruvchilarining ana shunday quvonchli onlariga sherik bo'lish, ularning qalblariga yanada quvonch ulashish maqsadida, bugun O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rahbariyati, professor-o'qituvchilari umumta'lim maktablarida bo'lishdi.



25 may kuni erta tongdan institut rektori, filologiya fanlari doktori, professor Ibrohim Yo'ldoshev Toshkent viloyati Zangiota tumanidagi 36-umumta'lim maktabi bilan institut o'rtasida yo'lga qo'yilgan hamkorlik doirasida ushbu ta'lim muassasasiga tashrif buyurib, o'quvchilarni "so'ngi qo'ng'iroq" bilan muborakbod etdi.



Ularga kelgusi hayotlarida oldilariga qo'ygan maqsadlariga erishish, oliy o'quv yurtiga kiradimi, biror kasb egasi bo'ladimi yurtimiz taraqqiyoti, uning rivoji, ertangi kuni uchun kerakli insonlar bo'lib yetishishlarida omadlar tiladi. Madaniyat, san'at yo'nalishlari bo'yicha kelgusida o'qishni davom ettirmoqchi bo'lgan o'g'il-qizlarni O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutiga o'qishga taklif qildi.

Matbuot kotibi